

“INGLIZ TIILI DARSLARIDA OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISH USULLARI”

**Uchqunova Sevara**

*Qashqadaryo Viloyati Maktabgacha Va Maktab Ta’limi Boshqarmasi Shahrisabz Tuman Maktabgacha Va Maktab Ta’limi Bo’limi 33-sonli umumiy o`rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda yoshlarimizning til o`rganishga bo`lgan qiziqishlariga e`tibor hamda og`zaki nutq ustida ishlash yo`llari haqida yozilgan. Bolalarda og`zaki nutqni rivojlantirish ularning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan jarayon. Ushbu jarayon har bir bolada har xil bosqichda o`tadi, bu esa ularning psixologiyasi va ta`lim muassasidagi olayotgan ta`limga bog`liq. Ushbu maqolada o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishning afzalliklari va usullari haqida batafsil bayon qilinadi.*

**Kalit so`zlar:** *pedagogik tajribalari, asosiy maqsad, o`quvchilarni mantiqan fikrlashi, so`z boyligi, yangi loyihalar, og`zaki nutqdagi elementlar, interaktiv o`yinlar.*

**KIRISH**

Ta`lim jarayonining doimiy ravishda qat`iy belgilangan va uzoq yillar davomida amal qilib kelinayotgan vaqt davomida tashkil etilishi, mutaxassislik fani bo`yicha mavzularga har o`quv yilida takroran murojaat qilinishi, o`quvchilar ta`limiy faolligi hamisha ham yuqori darajada bo`lavermasligi kabi holatlar hatto o`qituvchining o`zida ham dars mashg`ulotlariga tayyorlanishga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin.

An`anaviy ta`limda o`qituvchi ilm beruvchi, tarbiyalovchi, o`quvchi esa bilim oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxs: ta`limning asosini dars tashkil etadi. Darsning maqsadi ilg`or metod va usullarga tayangan holda olib borilsa, ta`limning natijasi, ya`ni sifati yuzaga keladi. O`qituvchi va o`quvchi munosabatlarining asosi muayyan fandan o`quv dasturiga ko`ra eng ko`p darajada bilim egallash, ma`naviy jihatdan tarbiyalashni tashkil qiladi. Bugungi ta`limda o`quvchi faoliyatini jonlantirish uning ijodiy qobiliyatini o`stirish, mustaqil amaliy ish yuritish malakasiga ega qilish muhim hisoblanadi.

O`zbekistonda ta`lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta`lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta`limda yangi burilishlar yuzaga kelmoqda. Yangiliklarning joriy qilinishi orqali:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta`sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o`zgaradi.;
- insonning hayotdan o`z o`rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

-jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi .

Shuni chuqur anglagan holda, mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan bir qator islohotlar,yangiliklar joriy qilinmoqda.Shu islohotlardan biri o'laroq , 2019-2020-o'quv yilida an'anaviylikdan biroz chekinib, darsliklar mazmuniga og'zaki nutqni o'stirish uchun yo'naltirilgan bir qancha yangiliklar kiritilganidir.Bunga misol qilib sinf o'quvchilari uchun chop qilingan "GUESS WHAT" darsligini keltirish mumkin.

#### ASOSIY QISM

Nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak?

Yangi pedagogik texnologiyalar-og'zaki nutqni o'stirishda samarali vosita

Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ingliz tili fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda ingliz tilida savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Ingliz tili darslarida o'tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o'yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o'quvchilar ikkiga bo'linib gap tuzadilar. O'yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Gaplar ma'lum bir mavzuga oid bo'lib, natijada matn tuziladi.

"Og'zaki nutq o'stirish usullari" mavzusini o'rganishga yondashar ekanman,bir qator yangi pedagogik texnologiyalarni dars davomida qo'llash va samarasi yuzasidan tahlil qilishga harakat qildim. Quyida shular bilan o'rtoqlashmoqchiman:

Ijodiy o'qish.

Ma'lum asardan parchalarni matn mazmunini umuman o'zgartirmasdan o'qishdir. Masalan: Darsliklarda berilgan "reading"larni umumiy mazmunini saqlagan holda ijodiy o'qish mumkin.





Rollarga bo'lib o'qish usulidan sahna asarlarini yoki nasriy asarlarni o'rganishda foydalaniladi.

Jo'r bo'lib o'qish usuli ta'limning boshlang'ich bo'g'inlarida qo'llaniladi va kitob o'qishga o'rgatiladi.

Ssenariy o'qish usulidan tayanch va yuqori sinflarda foydalaniladi. Matnni o'qib o'rganish asosida ssenariy tuzish amalga oshiriladi. Bu usul matnni mustahkam o'zlashtirish va qayta hikoyalashga yordam beradi.

Ma'ruza metodidan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi. Sarhisob mavzular, davrlarga tavsif berish, ma'lum yozuvchining hayoti va ijodini monografik tarzda o'rganishda ma'ruza metodidan foydalaniladi.

Suhbat metodi. Agar darsning qurilishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi adabiy muloqotga asoslansa va unda o'qituvchining o'quvchi o'rtasidagi savol-javoblar, ayrim paytlarda munozaralar yetakchilik qilsa, bunday dars suhbat metodiga tayanadi.

Izlanish metodi.

Bu metod tadqiqot metodiga o'xshab ketsada, undan farqli tomonlari ham bor. O'xshash jihati: har ikkala metod o'quvchilarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Farqli tomoni: tadqiqot metodini qo'llashda o'qituvchi, boshlovchi yo'naltiruvchi va darsni yakunlovchi sifatida harakat qilsa, izlanish metodida vazifalarni topshiruvchi va tekshirib, baholab o'quvchilarni rag'batlantiruvchi sifatida ko'rinadi. Izlanish metodi adabiy konsepsiyalar, uchrashuvlar, nazariy darslarda o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tayyorlashda (referat, taqriz, adabiy ijodiy ishlar) ko'proq foydalaniladi.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yorida oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

«Yelpig'ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari,

foйда va zararları belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Ta'limdan tashqari «Yelpig'ich» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:

jamoada, guruhlarda ishlash mahorati;

muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;

murosali qarorlarni topa olish mahorati;

o'zgalar fikriga hurmat;

xushmuomalalik;

ishga ijodiy yondashish;

faollik;

muammoga diqqatini jamlay olish mahorati. Bu texnologiya og'zaki nutqni o'stirishda juda samaralidir.

«Blits – o'yin», «Chorraha», «Muomala texnologiyasi», turli ish o'yinlari texnologiyasi kabilardan ham foydalaniladi. Masalan, «I will be a/an.....» kabi. Mazkur texnologiyalarni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin.

«Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu metod hozirda eng ommalashgan, ya'ni foydalanuvchilarga maqbul usullardan biri bo'lib ulgurgan.

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni



o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida chiqishi mumkin.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi, bu esa og'zaki nutqning chiroyli, izchil bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
- mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;
- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

«Tarozi» texnologiyasi

Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muholiflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.

«Tarozi» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

2019-2020-o'quv yilida an'anaviylikdan biroz chekinib, darsliklar mazmuniga og'zaki nutqni o'stirish uchun yo'naltirilgan bir qancha yangiliklar kiritilganidir. Bunga

misol qilib sinf o'quvchilari uchun chop qilingan "GUESS WHAT" darsligini keltirish mumkin.

Darslikdagi berilgan matnlarning mohiyatini anglashimiz uchun esa lug'atlarga murojaat qilishimiz tabiiy. Lug'atlar bilan ishlashda noan'anaviy yo'llardan borsak, o'quvchi uchun qiziqarliroq bo'ladi. Masalan, "Jadvalli labirint" didaktik o'yini lug'atlar bilan ishlashda qo'l keladi.

**Jadvalli labirint**

( Izohlarning to'g'ri variantlari yozildi, o'quvchilarga labirint shaklida yozilib tarqatiladi, og'zaki javob beriladi)

Word	Definition
Ignore	It's important to have your own opinions. Don't always agree immediately.
Respect	Sometimes you can change your opinion because you listen and decide another idea is better.
Interrupt	You should be polite to other people and listen carefully when they are speaking.
Exchange	It's best to talk to other people when there is a problem and think of ideas that make everyone happy.
Agree with	It is important to listen to other people's opinions and decide if the ideas are good or bad. Don't get angry or stop listening. Maybe they are really good ideas!
not pay attention to	ignore
have the same opinion as	agree with
speak when another person is speaking	interrupt
be polite to	respect
give and receive	Exchange

Gapirish, nutq faoliyatining turi sifatida, og'zaki fikr bayon etish demakdir. Bu — jarayonni bildiruvchi ta'rifdir. Gapirishning psixologik mazmuniga kelganda, uning hosilasi tarzida „fikir“ (mulohaza) ifodalanishini qayd etish zarur. (Mazkur termin inglizcha utterance, ispancha enunciado, nemischa Aussage, fransuzcha ёпонсё, ruscha высказывание deb yuritiladi). Soddaroq qilib, „gapirish“ metodik tushunchasi qamroviga (1) fikr bayon etish jarayoni, (2) aytish, (3) og'zaki muloqot, (4) fikr izhori natijasini kiritish mumkin. Gapirish oqibatida fikr aytiladi, ushbu fikrni bayon etish niyati (ichki turkisi) esa gapirishga sabab bo'ladi. Savolga berilgan qisqa javob ham, butun bir monolog ham „fikir bayoni“ hisoblanadi. Chet til o'qitishda yaqin paytlargacha „gapirish“ o'rnida „og'zaki nutq“, hatto „nutq“ terminlari qo'llanib kelardi



(„nutq“ tilshunoslik lug‘atlarida inglizcha speech, discourse, ispancha habla, discurso, nemischa Rede, Sprechen, fransuzchaparole, discours, ruscha речь so‘zlari orqali ifodalanadi). Onatilda hozir ham „nutqni o‘stirish“ deyiladi. Chet til o‘qitish ruhshunoslarining nazariy umumlashmalariga ko‘ra nutq muloqot jarayoni emas, gapirish ham emas, nutq — gapirish yangligi faoliyat chog‘ida fikrning, ro‘yobga chiqish va ifoda qilish usulidir. Gapirish — biror fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo‘llashdan iborat. Avval o‘yla, keyin so‘yla, deyilishi bejiz emas. „o‘yla“ qismida fikr paydo bo‘lishi, „so‘yla“ da esa uni nutq harakat sezgisi/analizatori orqali „bayon etish“ tomonlari nazarda tutiladi.

Birinchisi — til materialining qo‘llanilishidir, ular leksik, grammatik, talaffuz ko‘nikmalari deyiladi,

ikkinchisi — fikr aytish jihati — gapirish malakasi nomi bilan yuritiladi.

o‘quvchilarga chet tilda gapirishni o‘rgatish oraliq amaliy maqsad sanaladi, ya‘ni ta‘limning dastlabki bir necha (taxminan, uch) yili davomida ular gapirish va tinglab tushunishni (og‘zaki nutqni) o‘rganishadi, o‘qish va yozuv (yozma nutq) o‘qitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda o‘qish va tinglab tushunish (retseptiv nutq) maqsad maqomini egallaganida, gapirish o‘qitish vositasiga aylanadi. Demak, gapirish uch vazifani o‘taydi: aloqa vositasi, o‘qitish vositasi va o‘qitishning amaliy maqsadi (tinglab tushunish va o‘qish ham yuqori sinflarda shunday mavqega egadir. Yozuv esa maqsad emas, faqat vosita vazifasini bajaradi). Chet tilda gapirishga oid ko‘p sonli ilmiy terminlar metodika fanida keng istifoda qilinadi. Ularning muxtasar uslubiy tahlili darkordir.

Eski metodik adabiyotlarda „tayyorlangan/tayyorlanmagan“ nutq termini uchraydi. Tayyorlanmagan nutq so‘zlanganda, ueksprompt (badiha) shaklida sodir etiladi, ya‘ni u oldindan rejalashtirilmagan nutq vaziyati yoki mavzusiga ko‘ra gapirishdir. Oddiyroq qilib aytilganda, tayyorlanmagan nutq yuritishda, vaqt e‘tibori bilan awaldan hozirlik ko‘rilmaganligi ta‘kidlanadi. Tayyorlangan termini orqali nutq vaziyati, mavzusi yuzasidan muayyan til materiali asosida oldin mashq qilingan fikr bayon etish usulini tushunamiz. Chet tilda gapirish uch qismdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastavval gapirishga moyillik (motivatsiya) bo‘lishi taqozo etiladi. Ushbu til vositasida fikr aytish ehtiyoji tug‘iladi (yoki u maxsus tashkil etiladi). Nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo bo‘lsa, biror axborot berish, savolga javob qaytarish yoki nonutqiy harakat (mas. iltimos, buyruq)ni ijro qilishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati (ruscha интенция) paydo bo‘ladi, xolos. Gapirishga qo‘yiladigan talablarning miqdori va sifat ko‘rsatkichlari o‘quv dasturida keltiriladi. Unda o‘quvchining har bir sinfda qaysi mavzu va vaziyatlar bo‘yicha nechtadan replica ayta olishi ko‘rsatiladi. Gapirish uchun, avvalo, muayyan shart-sharoit yaratiladi;

- 1) gapirishga undash maqsadida muallimning mavzu o‘rganiladi;
- 2) o‘quvchining nimani gapirishiga oid hayotiy bilimga ega bo‘lishi;
- 3) fikrlash va fahmlashga oid nutq obyektiga o‘quvchi munosabatini shakllantirish;

4) fikrni izhor etishdan ko'zlanadigan maqsadni aniqlash (uning ushbu dolzarbligi hal qiluvchi ahamiyatga molik);

5) fikr va his-tuyg'ularni ifodalash vositasining shakllanganligi (nutq yuritishda mavjud malaka va ko'nikma ish beradi). Ushbu shartlarining ayrimlari yetarli, boshqalari qoniqarsiz bo'lishi natijasida gapirishda qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Juftnutq va yakkanutq shaklida gapirishni o'rgatish

Juft nutq va yakka nutqning amaliyotda birga o'rgatilishi ko'proq tarqalgan, biroq ularni o'rgatish metodikasi alohida- alohida nazariy ko'rib chiqiladi. Ikkala shakldagi nutqning xususiy belgilari qiyoslanganda ular o'rtasidagi farq yaqqol ko'rinadi.

Sohaga aloqadorlik	Juft nutqda	Belgilar	Yakka nutqda
kommunikativ	turli yo'nalishda	<- maqsad	>bir yo'nalishda
informativ	almashish	<- axborot	> yetkazish
kibemetik	kuchli	<- aloqa	> kuchsiz
ruhshunoslik	muqobil	<- nutqiy	>yo'nalgan
tilshunoslik	qisqartirilgan	<-faollik	>to'liq
paralingvistik	ko'p	<-uslub	> kam
psixofiziologik	o'zgaruvchan	<-situativlik	>aniq
		<- vazifa	

Juft nutqni o'rgatish. O'rta umumiy ta'lim maktabida juft-nutqning quyidagi turlarini o'rgatish tavsiya etiladi:

1. Axborot almashish maqsadidagi juft nutq.
2. Reja-juft nutq (birga faoliyat ko'rsatishni mo'ljallaydigan juftnutq).
3. Munozara-juft nutq. Fikr bayon etish bo'yicha juft nutq.

Ularning har qaysisi xususiy til materialini taqozo etadi hamda turli ta'lim bosqichlariga tegishli bo'lishi mumkin. Axborot almashish juftnutqida suhbatdoshlar ashvoviy xabarlarini bir-birlariga yetkazadilar. O'zaro yoki bir tomonlama xabardor qilishga qaratilgan bo'lib, bu juftnutq ta'limning ibtidoiy bosqichida qo'llanadi, chunki undan oddiyroq yoki miqdoran kam til materialini asosida ham foydalanish mumkin. Reja-juftnutq esa shaklan murakkabroq va mazmunan chuqurroq bo'lgani sababli, unda fe'lning kelasi zamonini bilish, buyruq gaplardan xabardor bo'lish, suhbatdosh fikrini rad eta olish va o'zinikini himoya qila bilish kabilar zarur bo'ladi. U ta'limning o'rta bosqichiga mos keladi. Munozara-juftnutqni bajarishda sabab-oqibat munosabatlari tufayli ergashgan qo'shma gapni o'zlashtirish va modallikning turli vositalarini qo'llay olish talab etiladi. Fikrni dalillash, suqbatdoshni ishontira olish, tanqidiy yondashish, xatoni isbotlash kabilar juftnutqni bajarish chog'ida zarur bo'ladi. So'zlovchi diqqati nutq mazmuniga tortiladi. Nutq malakalari takomillashgan darajaga yetkaziladi. Munozara-juftnutq yuqori sinflarda mashq qilinadi. Juftnutqning kengaytirilgan shakli guruhnutq (ikkidan ortiq o'quvchi) ishtirokida ijro etiladi.

Chet tilda juft yoki guruh-guruh bo'lib gaplashish rag'batlantiruvchi omillar ko'magida tashkil etiladi. Bunday omillar tarkibiga ko'rgazmalilik, tinglangan yoki o'qilgan matn, diafilm (kinofilm yoki parcha), slaydlar va, albatta, verbal (so'z bilan ifodalangan) nutq vaziyati kiradi. Bular gapirishni boshlashda, ayniqsa, muhimdir.

Juftnutq va yakkanutq maktab sharoitida quyidagi izchillikda o'rgatiladi:



Tayyorlov mashqlari:

1. Taqlid qilish (material o'zgartirilmaydi yoki qisman o'zgarish yuz beradi).
2. Mantiqiy operatsiyalar almashtirish, qayta taqsimlash va shaklini o'zgartirib aytishlarni qo'llash.
3. Jumlani taqlidan yoki mustaqil tuzish.
4. Jumla tuzish va jumlamani guruhlari aytish.

Nutqiy mashqlar. Tayyorlangan gapirish malakalarini o'qitishga mo'ljallangan mashqlar:

- a) tayanch so'z, gapirish rejasi, sarlavha kabilarga suyanib, fikrni o'zgartirib va to'ldirib bayon etish;
- b) axborot manbalari (rasm, kino va diafilm, matn kabilardan)dan foydalanib, fikr izhor etish;
- d) o'rganilgan mavzuga asoslanib fikr aytish.

Tayyorlanmagan nutqni o'qitish mashqlari:

- a) ona tilidagi hikoya, rasm, ovozsiz film kabi axborot asoslariga tayanib gapirish;
- b) oldin ko'rgan yoki o'qigan, o'ylagan, xayolidan o'tkazgan fikr-mulohazalardan tarkib topgan hayot tajribasidan kelib chiqib gapirish.

Tayyorlanmagan va tayyorlangan nutqiy mashqlardan namunalar beriladi.

Tayyorlangan juftnutq mashqlariga quyidagilar kiradi:

savollarga javob qaytarish (qisqa, to'liq, mufassal javoblar berish), turli savollar berish;

yakkanutq shaklidagi matnni tinglab yoki o'qib juftnutqqa aylantirish; mavzu bo'yicha juftnutq tuzish; yakkanutq matnini rollarga kirib aytish; hikoya (o'quv filmi, diafilmlar) mazmuniga binoan yangi juftnutq tuzish.

Tayyorlangan yakkanutq; mashqlaridan namunalar:

Bayon etilgan fikrni qisman o'zgartirish bilan gapirib berish (boshlanishi/oxirini o'zgartirish, hikoyaga yangi ishtirokchini jalb etish, hikoya tuzilishini o'zgartirib aytish); OcNVni tasvirlash yoki hikoya tuzish (tayanch so'z yordamida, rejaga qarab, ona tilida aytilgan mavzu chet tilda ham bayon etiladi); rasm yoki rasmlar majmuyini tasvirlab berish (karikaturalar, ovoz siz film yoki diafilm ham shunga tegishli); aytilgan so'z va jumlar qo'llanadigan OcNVga oid fikr bayon etish; sarlavha (tili o'rganilayotgan mamlakatga xos narsa yoki hodisani realiy)ni chet tilda tushuntirish; tinglangan hikoya/radioeshittirish, ma'ruza, nutqning mavzusini aniqlash va muhtasari tushuntirish; axborotni mazmunan ajralib turadigan qismlarga bo'lish va ularni nomlash; matn mazmunini qisqacha va o'z so'zi bilan gapirib berish; tinglangan axborot yoki o'qilgan hikoyani bir nechta jumlada qisqartib gapirish; tinglangan hikoya rejasini tuzish; juftnutqni yakkanutq shaklida aytib berish va h.k.

Tayyorlanmagan juftnutq mashqlari;

savollarga asosli javoblar qaytarish; boshqa o'quvchilar ham aralashib turadigan juftnutq yaratish; tayanchlarga suyanib yoki ularga suyanmasdan oldindan tayyorlanmagan juftnutq yaratish; savol-javob o'yini (viktorina) o'tkazish; munozara va tortishuv(disput) shaklida juftnutq o'tkazish.

Tayyorlanmagan yakkanutq mashqlari;

Hikoyaga sarlavha qo'yish va uni asoslash;

o'rganilgan mavzuga daxlsiz notanish rasmlarni tasvirlash;

tinglangan yoki o'qilgan mavzuga o'xshash hikoya tuzish;

keltirilgan dalillarga o'z munosabatini bildirish;

hikoyaning eng muhim joyini aniqlash va asoslash;

hikoya qahramonlari (ular yashagan joy, ularning zamoni)ni ta'riflash;

tinglangan yoki o'qilgan matn mazmuniga baho berish;

muxtasar e'lonlar matnini aytish va h.k.

Tayyorlanmagan gapirish mashqlarining tayyorlanganlardan ijobiy farqi shundaki, birinchidan, ularda nutqiy ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan yangi axborot mavjud va ikkinchidan, axborot almashish, mustaqil fikr bayon etish, munosabat bildirish, baholash, izohlash singari ish turlari nihoyatda qiziqarlidir.

Gapirish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolarni nazorat qilish (muallim tomonidan) va o'z-o'zini tekshirishning nutq malakalarini egallashda ahamiyati katta. Nutqiy mashqlarni bajarish chog'ida xatoni to'g'rilab turish ma'qul emas, bu ish fikr bayon etib bo'lingandan so'ng qilinadi. (XV bob nutq ko'nikma va malakalarini tekshirishga bag'ishlanadi.)

Maktab darsliklarida juftnutq va yakkanutq mashqlari sistemasi ishlab chiqilgan. Mashqlarning berilish tartibi va miqdori muayyan sinf o'quvchilarning chet tilda hosil qilingan ko'nikma va malakalari saviyasiga qarab farqlanadi.

Quyida ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan bir necha metodlarni keltirib o'tamiz:

Izlanish va tinglov:

Ingliz tilida audiolug'atlar, podcastlar, va radiolarni tinglash orqali tinglovni o'rganing. Bu, ijtimoiy qurilmalarda va ingliz tilida materiallarda ham o'qish, tinglov, va ma'qullashning yaxshi usulidir.

Audiotraininglar va Videolar:

O'zbek tilidagi nutqni rivojlantirish uchun ingliz tili audiotraininglari va videolar foydali bo'ladi. Bu, to'g'ri talaffuzni o'rganishda yordam beradi.

So'zlar va Iboralar Qo'llanish: O'zbek tilidagi so'zlar va iboralar bilan bog'liq mazmunlarni o'rganish. So'zlar, gaplarda va savollarda ishlatilishi uchun muhimdir.

So'zlar Bilan O'zlashtirish:

Yangi so'zlar va iboralar o'rganishdan so'ng, ularni o'zlashtirish uchun har doim matn o'qish, gaplashish va yozish amallarini bajarish muhimdir.

Til ko'ngilli O'zlashtirish:



Ingliz tilida xabarlar, dasturlar, filmlar va musiqalarni ko'rish yoki tinglash yordamida til ko'ngillari o'zlashtiriladi.

**Tarjimonlar va Qo'llanmalar:**

O'zbek tilidagi nutqni rivojlantirishda ingliz tilidagi matnlar va maqolalar bilan ishlash uchun tarjimonlar va qo'llanmalar foydali bo'ladi.

**Mentorlik va O'qituvchilar:**

O'qituvchilar yoki mentorlar bilan ishlash, maslahat olish va takrorlash jarayonida yordam beradi.

**Gaplashish va muloqot:**

Ingliz tilida muloqot qilishning ko'proq imkoniyatlari yaratish uchun muloqotlar, klublar, va sinfda o'quvchilar bilan a'loqani mustahkamlash. Bu, sizga yangi so'zlar o'rganishda va ularni amalda qo'llashda yordam beradi.

**Yangi so'zlar va frazalar o'rganish:**

Har kuni mavzuga doir bir necha yangi so'zlar va frazalar o'rgatish. Bu so'zlarni gaplashishda va yozishda ishlatish uchun ularni jadallashtirish juda muhimdir.

**Tatbiq etish va mashg'ulotlar:**

O'rganayotgan so'zlarni va frazalarni iste'mol qilishga harakat qiling. Bu, gaplashish, yozish, va tinglovni o'rganishga yordam beradi.

**Til ko'chirish dasturlari:**

Bir necha onlayn platformalardan yoki mobil ilovalardan foydalaning, masalan, Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, Ingliz Tilini O'rganing, va boshqalar.

Ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun darslarda ko'proq o'yinlarni qo'llash juda foydali bo'ladi. Bu o'yinlar o'rganish jarayonini tushinarli va motivatsionli qilishga yordam berishi mumkin. Quyidagi bir nechta o'yinlarni kuzating:

**Charades:**

Bu o'yinda har bir o'yinchiga bir mavzuni ko'rsatish uchun bir so'z yoki ifoda beriladi, va ularning qo'llab-quvvatlashmasi uchun ularning boshqalariga qarashi kelmaydigan xarakterlarni ta'riflashlari kerak. Bu, so'zlar va ifodalarni tushuntirish, gaplashish va tarzini yaxshilash uchun ajoyib bir vosita bo'lishi mumkin.

**Taboo:**

Taboo o'yini o'z navbatidagi so'zni tariflash uchun boshqa so'zlar va ifodalarni ishlatishni taqiqlaydi. Bu, so'zlash va tushuntirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ajoyibdir.

**Scrabble yoki Words with Friends:**

Bu o'yinlar harflardan so'zlar qurishni talab qiladi va so'zlar qurishda kreativlikni rivojlantiradi. Bu o'yinlarda qiziq so'zlar qurish, so'zlar bilan ma'no qo'llash va yangi so'zlarni o'rganish mumkin.

**Hangman:**

Hangman o'yini harfni topish va so'z yoki ifodalarni tushunishga qaratilgan. Bu, so'zlash va tushuntirishni rivojlantirish uchun o'zaro musobaqa yaratish uchun ajoyibdir.

Word Association:

Bu o'yinda har bir odam boshlang'ich so'z beradi, keyin o'yinchilardan har biri o'z fikrlariga asosan boshqa bir so'z taqdim etadi, u so'z boshlang'ich so'z bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu o'yin, fikrlarni bir-biriga bog'liq qilish va kreativlikni rivojlantirish uchun yaxshi vosita bo'lishi mumkin.

20 Questions:

Bu o'yinda bir kishilik bir narsani o'ylaydi va qo'shma savollar orqali boshqalar u to'g'risida o'ylashadi. Boshqalar 20 savol o'rtasida narsani topishga harakat qilishlari kerak.

Pictionary:

Bu o'yin har bir o'yinchiga belgilangan so'zni chizishni talab qiladi, qolgan o'yinchilar esa u so'zni aniqlash uchun urinish qiladi. Bu o'yin chizish va tushuntirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ajoyibdir.

Story Cubes:

Bu o'yinda, uch to'g'ri to'rtliklardan iborat zar yoki kubik, har bir tomonda bir narsa tasvirlangan. O'yinchilar zarlarni osish va tasvirlangan narsalardan o'z vaqtida qulay mavzular yaratish uchun fikrlar chiqarishadi.

Word Chain:

Bu o'yinda birinchi o'yinchi bir so'z yoki so'z bir qismini aytadi. Keyin keyingi o'yinchi shu so'z yoki qismini olib, yangi so'z yoki qismini boshlab qo'shadi. Bu o'yin o'z tili ustida fikrlar yaratish va so'zlashni rivojlantirish uchun yaxshi bo'lishi mumkin.

X U L O S A

Ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarning innovatsion metodlari keng ko'lamda kirib kelmoqda. Mazkur usulning eng muhim jihati shundaki, u o'quvchilarni faollashtiradi, ingliz tilida fikrni mustaqil ifodalash, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatiladi.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim uslublaridan farqli o'laroq, bu usul o'qituvchi bilan o'quvchining darsda keng, ayrim o'rinlarda o'quvchining o'qituvchidan ham faolroq ishtirok etishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xalq ta'limi sohasida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu kadrlar tayyorlash mazmunini ham takomillashtirishni talab etmoqda.

Yoshlarimizni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib yetishtirish va komil inson qilib tarbiyalash uchun, avvalambor, ularning ingliz tilida nutqiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirishimiz zarur.

Til ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchida o'z fikrini savodli qilib ifodalash ko'nikmalarini, qolaversa, ularda nutq madaniyatini shakllantirishdir.

Binobarin, nutq madaniyati malakasi, avvalo, chet tili me'yorlarini egallash, undan maqsadga muvofiq ravishda foydalana olishga erishish bilan bog'liq.

Ma'lumki, fikrni bayon etish va tafakkur qilish nutq orqali amalga oshadi. O'quvchida tafakkur qanchalik rivojlantirilsa, uning fikr bayon qilish mahorati shuncha yuqori bo'ladi.



Davrimiz hozirgi yosh avloddan fikrlash va fikr mahsulotini to'g'ri ifodalashni talab qilar ekan, o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangidan yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak

Chunki ruhshunos olimlarning fikricha, sog'lom tug'ilgan bolalarda qaysidir bir sohaga qobiliyatning bo'lmasligi mumkin emas. Ularni rivojlantirishning asosiy omili darslarni tashkil etishdagi metodlar, o'qituvchining ish tajribasi va pedagogik mahoratiga chambarchas bog'liqdir. Sinfda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyati hukmronlik qilmas ekan, bu yerda ularning faol ishtiroki haqida, mukammal o'zlashtirishlari haqida gap bo'lishi mumkin emas. O'quvchilar darsda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlariga qat'iy ishonch bilan darsni yakunlashlari kerak. Dars yakunida o'qituvchi o'quvchilarning faol ishtiroklarini qayd etishga e'tiborni qaratishi, "O'ylaymanki, bugungi o'rgangan bilimlaringiz hayotingizda qo'l keladi!" mazmunida tilak bildirishi ularda ko'tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi. Zero, bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning maqsadi ham shu: Egallagan bilimni hayotda qo'llay bilish

Xulosa qilib aytganda, bolalikning shunday davri mavjudki, bu davrda olingan bilim, ko'nikma va malakalar "toshga o'yilgandek" bir umrga saqlanib qoladi. Shuning uchun ham aytish mumkinki, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash dars samaradorligini oshirish bilan birga ularning og'zaki nutqini ham o'stiradi.

Har tomonlama salohiyatli, dadil, o'z fikriga ega yoshlar esa yurtimiz kelajagidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tilgan ushbu fikrlarni eshitgan har bir pedagogning dilida kelajakka ishonch, mas'uliyat hissi yanada ortganligi shubhasiz:

"Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql-u zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari
3. A. Madrahimov, T. Sotliqov, F. Boynazarov "Yangi pedagogik texnologiya asoslari" Falsafa va huquq instituti nashriyoti, Toshkent-2007
4. N. Rasulova "8-sinf mashqlar tahlili
5. "Til va adabiyot ta'limi" Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali, 2019-yil, 1-son
6. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi". 1996 y.